BADIIY MATNDA NUTQIY AKTLAR XUSUSIDA

Umurzakova Umidaxon Ahmadjon qizi
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
umidaxonumirzaqova821@gmail.com
+998906340593
ORCID ID 0009-0004-6806-1528

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy aktlar haqida ma'lumot beriladi, lokutiv aktning J.Ostin nazariyasi bo'yicha bo'linishi tahlil etiladi va ushbu nutqiy aktlarga Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridan misollar keltiriladi.

Аннотация. В данной статье приводится информация о речевых актах, анализируется классификация локуторного акта согласно теории Дж. Остина, а также приводятся примеры этих речевых актов из произведения Тогая Мурода «Поля, оставшиеся от моего отца».

Abstract. This article provides information about speech acts, analyzes the classification of the locutionary act according to J. Austin's theory, and presents examples of these speech acts from Togay Murod's novel *"Fields Left by My Father."*

Kalit so'zlar: nutqiy akt, lokutiv akt, fonetik akt, fatik akt, retik akt.

Ключевые слова: речевой акт, локуторный акт, фонетический акт, фатический акт, ретический акт.

Key words: speech act, locutionary act, phonetic act, phatic act, rhetic act.

Bugungi kunda pragmalingvistikaning dolzarb masalalaridan biri nutqiy akt nazariyasi bo'lib kelmoqda. Pragmatikaning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazariyasining to'liq ko'rinishdagi lingvofalsafiy ta'limot sifatida

shakllanishi bilan bog'liqdir. Uning shakllanishi J.Ostin va J.Serl faoliyatlariga asoslanadi. "Nutqiy akt o'zi nima?" - degan savol tug'iladi. Nutqiy akt tushunchasi kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining bayonidir. Sh.Safarov ta'biri bilan aytganda, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir. Bizga ma'lumki, nutqiy aktlar 3 xil: 1) lokutiv akt; 2) illokutiv akt; 3) perlokutiv akt.

Lokutiv akt talaffuz bilan aloqador. J.Ostin lokutiv aktni ichki farqlanish belgisiga ko'ra 3 turga ajratadi: 1) fonetik; 2) fatik; 3) retik.

So'zlovchi uchun ma'lum bo'lgan tovushlar talaffuzi ***fonetik akt***dir.

Fatik akt tovush birikmalari va so'zlarni ma'lum grammatik qoidalar yordamida talaffuz etishdir.

"Men otamiz pinjiga kiraman. Men otamiz belbog'idan tortaman.

Ota, ayting! – deyman. T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridan olingan quyidagi misolda fatik akt yuzaga chiqmoqda.Talaffuzda grammatik qoidalarga amal qilinib, tinish belgisi ham talaffuzga mos qo'yilgan.

Retik aktda esa so'zlovchi so'zlardan foydalanish jarayonida ularni ma'lum ma'no va referensiya bilan ta'minlashi kerak. Masalan:

"**Jingalasoch bosh irg'ab – bosh irg'ab eshitdi**". Ushbu misolda retik aktni ko'ramiz. Qizning aynan ismi emas, balki uning sochlari jingalak bo'lgani, zamonaviy ko'rinishdaligi uchun shunday laqab bilan atalmoqda. Yoki yana bir misolda: "**Bisotimda bor yomon so'zlarim bilan kattalarni tutib so'kayin, dedim.**

– Ket, baring ket! – deya baqirdim" jumlani talaffuz qilish jarayonida so'zlovchi uni aniq mazmun va referensiya bilan ta'minlagan.

So'zlovchi matnni yoki nutqni talaffuz qilish bilan nimanidir aytishni niyat qiladi. Ana shu niyat illokutiv akt ekanligini J.Serl aytib o'tadi. Demak, illokutiv aktda niyatlar aks etadi. "Perlokutiv akt – tinglovchi munosabati, fikrlari bilan bog'liq holda illokutiv akt ta'siri yordamida hosil bo'luvchi akt".Umuman, lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar bir-birida yashaydi. Bosqichma-bosqich biridan biriga o'tib boradi. Bir lokutiv aktda bitta propozitsiya mavjud bo'ladi, lekin o'sha propozitsiyaning ichida bir necha illokutiv nutqiy akt bo'lishi mumkin. Masalan,

Chanishev! O'lsam o'laman – lekin sen o'rislarni akam demayman!

Ushbu misolda propozitsiya bitta : yomon odamlarni aka demasligi haqidagi axborot. Bunda 3 ta illokutiv akt bor:

1) o'z yurtini talayotgan insonlarga nisbatan nafrat nutqiy akti;

2) va'da berish nutqiy akti;

3) tahdid nutqiy akti (ismi orqali emas, familiyasi bilan murojaat qilish va yuqori ohang buni yuzaga chiqarmoqda).

Tag-tamal bitiklarni o'qib bo'ldi: "Dunyoga kelib nima ko'rdim?" "Beshik ko'rdim" "Dunyo ko'rib neni ko'rdim? "G'o'za ko'rdim, paxta ko'rdim" " Kun ko'rdim – g'o'za ko'rdim" "Tun ko'rdim – beshik ko'rdim" (189-bet)

Ushbu parchada yutimiz mustaqillikka erishmasidan oldin yashagan, butun umri dalada o'tgan, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko'rmagan, kunduzi paxta dalasida mehnat qilib, kechalari uy ishlari va bolalaridan ortib dam ololmaydigan, odamday yashashni his qilmagan munis o'zbek ayolining ko'ngil dardlari yoritilgan, "hayotdan norozilik", "afsuslanish", "alamzadalik" nutqiy aktlari ayol nutqiga xos.

Nutqiy aktlarni ifodalaydigan fe'llar ham mavjud.Ular illokutiv fe'llar deyiladi. Masalan, "Bola-baqramni qator o'tirg'izib maqtandim! Mehnat-mehnatning tagi rohat, o'rtoqlar!-dedim. -Mana endi mototsikl minamiz, ha!" (122-bet) Bunda ***maqtandim*** illokutiv fe'li orqali maqtanish nutqiy akti ifodalanmoqda. U menga buyurdi : "Tezroq kel!" misolida ***buyurdi*** illokutiv fe'li ishtirok etmoqda. Bunday fe'llarga: chaqirmoq, iltimos qilmoq, so'ramoq, tahdid qilmoq, qo'rqitmoq, maslahat bermoq, achinmoq, baqirmoq, va'da bermoq, afsuslanmoq, o'ksinmoq kabi fe'llarni ham sanash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida nutqiy aktlar hali to'liq o'rganib chiqilmagan. Nutqiy aktlar pragmatikaning asosi bo'lib, ularni o'rganish insonning ichki olamini uning nutqi orqali tahlil qilish imkonini beradi, pragmalingvistika va uslubshunoslik sohalarining nazariy jihatdan to'ldirilishida muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Забавников Б.Н.К повроблеме структирования речевого акта (речевого действия). Вапросы языкознания. № 6. М. 1984. С 120.
2. Сафаров Ш.Прагмалингвистика.2008. Б.71.
3. Серль Дж. Р. Что такое речевой акт?НЗЛ. Вып. XVII. М.1986. с.151-169.
4. Ҳакимов М .Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр,2013.
5. Т.Мурод.Отамдан қолган далалар.-Т.:Шарқ.1994 27-Б